RAQAMLI MOLIYA TIZIMINING HUQUQIY ASOSLARI

Yunusjonov Nodirbek Yunusjonovich
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari instituti
“Gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada raqamli moliya tizimining shakllanishi, uning huquqiy asoslari, raqamli to‘lov tizimlari, elektron pul, fintech xizmatlari, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari va xavfsizlik masalalari yoritilgan. O‘zbekiston va xalqaro tajriba solishtirilib, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan. Maqola so‘ngida zamonaviy raqamli moliya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha aniq amaliy takliflar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli moliya, elektron pul, fintech, qonunchilik, raqamli xavfsizlik, elektron to‘lovlar.*

Keywords: *digital finance, e-money, fintech regulation, digital banking, cybersecurity, digital payments.*

Kirish

Bugungi kunda dunyo moliya tizimi keskin raqamlashtirilmoqda. Raqamli iqtisodiyotning kengayishi raqamli moliya tizimining shakllanishiga olib keldi. Bugun nafaqat tijorat banklari, balki fintech kompaniyalar, elektron to‘lov tashkilotlari, raqamli valyutalar va davlatning o‘zi ham moliyaviy jarayonlar ishtirokchisiga aylangan. Shu bois raqamli moliya tizimining huquqiy tartibga solinishi davlat, jamiyat va iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston ham oxirgi yillarda raqamli moliya bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Masalan, 2020–2024-yillar davomida elektron to‘lovlar hajmi 204 trillion so‘mdan oshdi [1]. Bu esa huquqiy tartibotning doimiy ravishda takomillashishini talab qiladi.

Maqolaning maqsadi - raqamli moliya tizimining huquqiy asoslarini, amaliyotda uchraydigan muammolarni, tendensiyalarni va istiqbollarni ilmiy-huquqiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Raqamli moliya tushunchasi va uning tarkibiy qismlari:

Raqamli moliya tizimining huquqiy asoslari – bu davlat tomonidan raqamli to’lovlar, electron bank xizmatlari, kripto – aktivlar, fintech, electron tijorat va boshqa raqamli moliyaviy operatsiyalarni tartibga solish uchun qabul qilingan qonunlar, qarorlar va normativ-huquqiy hujjatlar majmui hisoblanadi.

Raqamli moliya tizimining shakllanishi:

Dastlab raqamli moliya asoslari 1990-yillarda bank kartalari joriy etilishi bilan boshlangan. 2010-2015-yillarda esa quyidagi platformalar

-Apple Pay

-Google Pay

-PayPal

-Skrill

kabi xizmatlar global moliya bozorida asosiy o‘rin egalladi.[3]

O‘zbekistonda esa 2018–2024-yillarda Payme, Click, Apelsin, Payze, UnionPay, Xazna, Alifmobile, AnorBank, TBC kabi to‘lov tizimlari faol rivojlandi va ularning yillik aylanmasi 140 trillion so‘mdan oshdi.[3]

Kuni kecha O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosiy g’oyasi quyidagicha: ‘’ Naqdsiz xisob – kitoblarni

ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora – tadbirlar tog'risida''. Ushbu farmonga ko'ra : 2026-yil 1-apreldan boshlab quyidagilar uchun to'lovlar faqatgina bank kartalari yoki elektron to'lovlar tizimi orqali amalga oshiriladi:

a) davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar

b) elektr energiya, tabiiy gaz, ichimlik suvidan foydalanganlik uchun to'lovlar (bundan bank kassalari orqali amalga oshiriladigan to'lovlar mustasno)

c) alkagol va tamaki mahsulotlari

d) qiymati 25 million so'mdan oshadigan tovar va xizmatlar (bundan qishloq xo'jaligi mahsulotlari mustasno)

yana bir necha turdagi xizmatlar uchun naqd pul muomalasi o'rniga naqdsiz to'lov usullarini joriy etishni sanab o'tilgan bo'lib, bu iqtisodiyotni o'sishiga ancha samarali foyda beradi . Bundan tashqari, Raqamli moliya sohasiga ham sezilarli darajada o'zgarish va qo'shimchalar kiritadi.

Raqamli moliya sohasi quyidagi asosiy huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi: "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonun (2020-yil).

Elektron pul, to'lov tashkilotlari, protsessing markazlari faoliyatini belgilaydi.[4]

"Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonun (2015-yil).

Moliyaviy xizmatlarda davlat organlari o'rtasidagi elektron integratsiyani tartibga soladi.[5]

Markaziy bankning elektron to'lovlar bo'yicha nizom va qarorlari

Fintech kompaniyalarning litsenziyalash tartibi.[6]

"Raqamli iqtisodiyot to'g'risida"gi Konsepsiya (2018)

Raqamli moliyani rivojlantirish strategiyasi.

Elektron pulning huquqiy maqomi O’zbekiston Respublikasi

O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, elektron pul — bu naqd pul ekvivalenti bo‘lgan raqamli qiymat. U quyidagi shaxslar tomonidan chiqariladi:

-banklar

-litsenziyaga ega to‘lov tashkilotlari

-vakolatli fintech kompaniyalari

Elektron pul bo‘yicha bitimlar fuqarolik-huquqiy majburiyatlar sanaladi.[7]

Raqamli to‘lovlar xavfsizligi

Huquqiy jihatdan raqamli xavfsizlik quyidagi normalar bilan tartibga solinadi:

“Axborot xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun

“Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun

Markaziy bankning identifikatsiya va autentifikatsiya talablari

2023-yilda O‘zbekistonda 89 ta kiberhujum to‘xtatilgan.[8] Shu sababli moliyaviy dasturlar uchun KYC/AML talablariga qat’iy amal qilinadi.

xizmatlari va ularning huquqiy tartibga solinishi

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021–2023-yillardagi hujjatlariga ko‘ra:

-to‘lov tashkiloti ochish

-loyiha hujjatlari taqdim etish

-xavfsizlik sertifikatlari

-server infratuzilmasi talablari belgilangan. [9]

Fintech bozori oxirgi uch yilda 4.2 barobar kengaydi.

Elektron banking - bank xizmatlarining to‘liq raqamli ko‘rinishda amalga oshirilishi. To’liq ochib beradigan bo’lsam bu – bank xizmatlaridan internet, mobil ilova, SMS,USSD kabi elektron texnalogiyalar orqali foydalanish tizimidir. Yani mijoz bank bo’limiga bormasdan turib, barcha moliyaviy operatsiyalarni masofadan turib ham amalga oshira oladi. Bunga quyida bir nechta operatsiyalarni misol qilsak bo’ladi:

-onlayn kreditlar

-onlayn to’lovlar

-pul o’tkazmalar

-valyuta ayirboshlash

-mobil banking

-masofaviy identifikatsiya

-raqamli omonatlar

2024-yilda masofaviy kreditlash hajmi 36 trillion so‘mga yetdi.[10]

Ayni kunlarda xalqaro ommalashayotgan Kripto -aktivlar mavjud bo’lib, bu raqamli shaklda mavjud bo’lgan, kriptogrfik usullar bilan himoyalangan, blokcheyn texnalogiyasiga asoslangan aktivlar bo’lib, ular iqtisodiy qiymatga ega va almashuv, to’lov, investitsiya vositasi sifatida ishlatiladi

Bu soha bo’yicha bir nechta huquqiy bo’shliqlar mavjud:

Kripto-aktivlar bo‘yicha aniq qonun mavjud emas.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda kiberxavfsizlik tahdidlari 2023-yilda elektron to‘lov tizimlarida 220 dan ortiq firibgarlik holati qayd etilgan.

Shu bilan birgalikda ma’lumotlar xavfsizligiga ham e’tibor berilgan. Qattiq tartibga solish ba’zan texnologik rivojlanishni sekinlashtiradi.

Kripto-aktivlarning ahamiyati:

-tezkor va arzon xalqaro o’tkazmalar;

-investitsiya imkoniyatlaro;

-raqamli iqtisodyotni rivojlantiradi;

Bu sohani takomillashtirish bo‘yicha bir necha takliflar berib o’taman:

-Kripto-aktivlar bo‘yicha alohida qonun qabul qilish.

-To‘lov tashkilotlari uchun yagona xavfsizlik standarti yaratish.

-Kiberxavfsizlik bo‘yicha alohida davlat markazi yaratish.

-Elektron pul emissiyasini blockcyn asosida yuritish.

Xulosa

Raqamli moliya tizimi bugungi global iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. O‘zbekiston ushbu yo‘nalishda katta yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, huquqiy baza hamon takomillashtirilishi kerak bo‘lgan yo‘nalishdir. Yangi texnologiyalarni samarali qo‘llash, xavfsizlikni ta’minlash, fintech xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash va xalqaro standartlarga moslashish raqamli moliya tizimining yanada barqaror va ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2024-yil.

2. “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonun, 2015-yil.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Qarori: To‘lov tashkilotlari faoliyatini tartibga solish Nizomi, 2021-yil.

4. “Axborot xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonun.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki: “Yillik hisobot”, 2023-yil.

6. O‘zbekiston Fintech Assotsiatsiyasi ma’lumotlari, 2024-yil.

7. UN Digital Finance Report, 2023.

8. OECD: “Digital Payment Systems Analysis”, 2022.

9. Kiberxavfsizlik Markazi hisobotlari, 2023-yil.

10. Korea Digital Finance Strategy

11. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-246-sonli